

**IMOM BUXORIY YODGORLIK MAJMUASINI ZIYORAT TURIZMINI  
RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI**

**Yormamatov Shohboz Zafar o‘g‘li,**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti*

*Samarqand shahar*

*[yormamto@gmail.com](mailto:yormamto@gmail.com)*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15170645>

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada Imom Buxoriy yodgorlik majmuasining ziyorat turizmini rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. O‘zbekiston Respublikasida turizmni, xususan, ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar va ularning natijalari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, Imom Buxoriy hayoti va ilmiy merosi haqida ma‘lumot berilib, uning qabri joylashgan hududning turistik salohiyati yoritiladi. Maqolada ziyorat turizmini yanada rivojlantirish uchun taklif va tavsiyalar ham ilgari surilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Imom Buxoriy, ziyorat turizmi, turizm infratuzilmasi, madaniy meros, islomiy ziyoratgohlar.*

**Аннотация.** *В данной статье анализируется роль и значение мемориального комплекса Имама аль-Бухари в развитии паломнического туризма. Рассматриваются принятые в Республике Узбекистан решения по развитию туризма, в частности паломнического туризма, и их результаты. Также представлена информация о жизни и научном наследии Имама аль-Бухари, а туристический потенциал территории, где находится его мавзолей, подробно освещается. В статье предложены рекомендации и меры для дальнейшего развития паломнического туризма.*

**Ключевые слова:** *Имам аль-Бухари, паломнический туризм, туристическая инфраструктура, культурное наследие, Узбекистан, исламские святыни.*

**Annotation.** *This article analyzes the role and significance of the Imam al-Bukhari Memorial Complex in the development of pilgrimage tourism. The decisions adopted in the Republic of Uzbekistan for the development of tourism, particularly pilgrimage tourism, and their outcomes are examined. Information about Imam al-Bukhari's life and scholarly legacy is provided, along with an assessment of the tourism potential of the area where his mausoleum is located. The article also presents recommendations and proposals for further development of pilgrimage tourism.*

**Keywords:** *Imam al-Bukhari, pilgrimage tourism, tourism infrastructure, cultural heritage, Uzbekistan, Islamic pilgrimage sites.*

Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017 yil 16 avgustdagi “2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida mamlakatimizda turizm industriyasini jadal rivojlantirish uchun qisqa muddatda eng qulay shart-sharoit yaratish yangi ish o‘rinlarini tashkil etish, milliy turizm mahsulotlarini jahon bozorida faollashtirish aniq qilib belgilab berilgan. Qarorga muvofiq ziyorat turizmini rivojlantirish, unda xorijlik turistlar, ya’ni ziyoratchilar uchun viza, ro‘yxatdan o‘tish tartiblari soddalashtirilishi belgilab berilgan[1].

# “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6165-sonli farmoniga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilingan. Ushbu qarorning 1-bandida “Tashrif buyuruvchilar uchun shart-sharoitlar yaratilishi rejalashtirilgan turizm salohiyati yuqori bo‘lgan madaniy meros obyektlari ro‘yxati”, Xorijiy tillarga tarjima qilinadigan va targ‘iboti keng amalga oshiriladigan, allomalar va ziyoratgohlar to‘g‘risidagi filmlar ro‘yxatini ishlab chiqish haqidagi ustuvor vazifalar belgilangan[2].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi Samarqand viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 828-son qarori “Imom Al-Buxoriy” majmuasiga tutash hududlarni turizm infratuzilmasini qurish, shuningdek, ziyoratchilar va turistlar uchun qo‘shimcha qulayliklar, shu jumladan “halol” standarti bo‘yicha umumiy ovqatlanish obyektlari, diniy marosimlar va dam olish uchun joylar yaratish bilan birgalikda rivojlantirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan[3].

Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO)ning ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda xalqaro turistik tashriflar soni 1,3 mlrd. ga, soha tushumlari esa 1,4 trln. AQSh dollariga yetdi va bu pandemiya (COVID-19) dan oldingi davr ko‘rsatkichlarining mos ravishda 88 foizi hamda 93 foizini tashkil etadi. 2023-yilgi xalqaro turistlar soni ko‘rsatkichlari 2022-yil (960 mln. turist) bilan taqqoslaganda 35 foiz, turizm sohasi daromadlari esa, 28 foizlik o‘shishni qayd etdi. Ayrim hisob-kitoblarga ko‘ra 2025-yilga kelib xalqaro turistlar soni 1.7 mlrd. turistni tashkil etishi bashorat qilingan[4].

Mamlakatimizda hozirgi vaqtda turizmni rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Ziyorat turizmni rivojlantirish haqida gap ketar ekan, butun dunyoga mashhur bo‘lgan, islom sivilizatsiyasi yirik markazlaridan biri hisoblanmish Imom Buxoriy yodgorlik majmuasining o‘rni benihoya ahamiyatli sanaladi. Imom Buxoriy majmuasi ma'muriy-hududiy bo‘linish jihatidan Samarqand viloyati, Payariq tumani Xartang qishlog‘i hududida joylashgan.

Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi islom olamida yuksak e'tiborga ega bo‘lgan ziyoratgohdir. Musulmon olamining taniqli muhaddisining to‘liq ismlari Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy. Imom al-Buxoriy 810 yilda Buxoroda Poykant qishlog‘ida tavallud topgan.

Imom Buxoriy 16 yoshida onasi va akasi Ahmad bilan xaj safariga yo‘l oladi. Xaj ibodatlaridan so‘ng onasi va akasi bilan Makka shahrida xayrlashadi va Payg‘ambar Muhammad (S.A.V) ning sahih (ishonchli) hadislarini to‘plash maqsadida Arabistonda qoladi. Imom Buxoriy qariyb 40 yil davomida 20 dan ziyod

# “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

yurtlarda bo‘lib mingdan ziyod ustozlar qo‘lida tahsil oladi va Payg‘ambarimiz (S.A.V)ning 600 000 dan ortiq hadislarini yig‘ishga muvofiq bo‘ladi.

Imom Buxoriy (Imomud dunyo, fil hadis) hadis ilmida dunyo imomi, (Amiril mo‘miniyn fil hadis) hadis mulking amiri nomli unvonlarni olib, 40 yillik safardan keyin ona yurti Buxoroga qaytadi. Ma‘lum muddat muhaddis o‘z vatani Buxoroda ko‘plab shogirdlar va ulamolarga xadis ilmidan saboq berish bilan mashg‘ul bo‘ladi. Ma‘lum sabablarga ko‘ra Imom Buxoriy Samarqand tomonga yo‘l oladi va bir qancha muddat shahar yaqinidagi Xartang qishlog‘ida qarindoshi G‘olib ibn Jabroilnikida yashaganidan keyin xastalikkaga chalinib, milodiy 870 yil 1 sentyabrida vafot etadi va shu qishloqqa dafn qilinadi. Uning qabri barcha mo‘min-musulmonlar uchun tabarruk ziyoratgoh, sevimli qadomjoldan hisoblanadi.

Ta’kidlash joizki, so‘nggi yillarda yurtimizda olib borilayotgan islohotlar natijasi o‘laroq O‘zbekiston “Jahon musulmon sayyohlari indeksi” reytingida 10 pog‘ona (32-o‘rindan 22-o‘ringa) ko‘tarilib, Islom hamkorlik tashkilotiga a‘zo mamlakatlar o‘rtasida musulmon sayyohlarni jalb qilayotgan “Eng jozibador” hamda “Xavfsizlik va bag‘rikenglik darajasi yuqori” bo‘lgan 10 mamlakat qatoridan o‘rin egalladi.

Hadis ilmining buyuk muhaddisi, vatandoshimiz Imom Buxoriy hazratlari islom dunyosida nechog‘lik yuqori martabaga ega bo‘lishlariga qaramasdan, sobiq ittifoq davrida o‘zining munosib qadr-qimmatini topmagan siymolardan biri edi. Eng ayanchlisi, xorijiy o‘lkalarda, ayniqsa, arab dunyosida yuksak extirom, cheksiz mehr-muhabbatga sazovor bo‘lgan alloma o‘z yurtida e’tibordan chetda qolgan edi. Buyuk muhaddisning hayoti va bebaho merosi deyarli o‘rganilmas, alloma dafn etilgan maskan tashlandiq holatda bo‘lganligini mahalliy aholining yoshi ulug‘lari yaxshi eslashadi.

Mustaqilligimiz sharofati bilan xalqimizning ma’naviy hayotida ulkan tarixiy o‘zgarishlar yuz berdi. Buyuk vatandoshimiz Imom Buxoriyga munosabat ham batamom o‘zgardi. Uning asarlari har tomonlama o‘rganilib, keng jamoatchilikka taqdim qilinayotir. Jumladan, allomaning shoh asarlari “Al-Jome as-sahih” (4 jildlik) hamda “Al-adab al-mafrad” to‘lig‘icha o‘zbek tiliga o‘girilib, keng kitobxonlar ommasiga taqdim etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1997 yil 29-apreldagi “Muhammad ibn Ismoil Imom al Buxoriy tavalludining xijriy 1225 yilligini nishonlash va uni o‘tkazish to‘g‘risida” gi qaroriga muvofiq bu yodgorlik majmui O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov rahbarligida yaratilgan.

Hozirda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan Imom Buxoriy majmuasi yangidan qurilmoqda. Maqbara maydoni 600 kvadrat metr, balandligi 28 metr holatda kengaytirildi.10 ming kishiga mo‘ljallangan masjid qurilib tashqi

# “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

pardozlash ishlari jadal davom ettirilmoqda. Majmuaning 4 burchagida 75 metrlik minoralar mavjud. Bugungi kunda qurilish va muhandislik ishlari bitkazilib, pardozlash bosqichi boshlangan. Bunda milliy an’analar va issiq ranglarga alohida e’tibor berilgan[5].



*1-rasm. Yangi qadroslayotgan Imom Buxoriy majmuasi 28.06.2024-yil.*

Respublikamizda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz. Jumladan:

- **“Ziyorat odobi” bo‘yicha qo‘llanmalar** – ziyoratchilar uchun o‘zbek, rus, ingliz va arab tillarida ma’lumot beruvchi yo‘riqnomalar tayyorlash;
- **Malakali xizmat ko‘rsatish xodimlari** – ziyoratchilarga xizmat ko‘rsatuvchi gid va mehmonxona xodimlarining maxsus o‘qitilishini ta’minlash;
- **Ziyoratchilar uchun maxsus mobil ilova ishlab chiqish** – ziyorat maskanlari haqida batafsil ma’lumot, yo‘nalishlar, audio gid va boshqa xizmatlarni o‘z ichiga olgan ilova yaratish;
- **Mahalliy tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash** – ziyoratchilar uchun milliy hunarmandchilik mahsulotlari va suvenirlar ishlab chiqaruvchi tadbirkorlarni rag‘batlantirish;
- **Ekologik toza muhitni ta’minlash** – ziyoratgohlar atrofini toza saqlash, chiqindilarni qayta ishlash tizimini joriy etish;
- **Xalqaro reklama va targ‘ibot ishlari** – O‘zbekistonning ziyorat turizmi salohiyatini xalqaro miqyosda targ‘ib qilish, hujjatli filmlar, turistik sayohatlar va ommaviy axborot vositalarida maxsus ko‘rsatuvlar tayyorlash.

# “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

**Xulosa** o‘rnida Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi nafaqat islom olamining muqaddas ziyoratgohlaridan biri, balki O‘zbekistonning ziyorat turizmi markazlaridan biri sifatida ham muhim ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda infrastrukturani rivojlantirish, turistlar uchun qulay shart-sharoit yaratish, turistik obyektlarni targ‘ib qilish muhim o‘rin tutadi.

Imom Buxoriy majmuasi nafaqat diniy, balki ilmiy va madaniy meros maskani sifatida ham katta salohiyatga ega bo‘lib, xorijiy va mahalliy ziyoratchilar oqimini jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi. Majmuaning rekonstruksiyasi va kengaytirilishi turizm sohasi rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi kutilmoqda.

## Adabiyotlar:

1. Prezidentning 16.08.2017 yildagi PQ-3217-son “2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6165-sonli farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi Samarqand viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 828-son qarori.
4. <https://www.unwto.World Tourism Barometer and Statistical Annex>
5. Kun.uz rasmiy sayti 26.08.2024-yil.